BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘ZBEK TILINING AHAMIYATI VA ONA TILIGA NISBATAN HURMATNI SHAKLLANTIRISH

Rasuljonova Madinabonu

Andijon davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Til millatning asliyatini ko‘rsatuvchi vosita sifatida yillar davomida avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Uning kelgusidagi taqdirini hal qilish yosh avlodlarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bolaga yoshligidan tilga bo‘lgan hurmatni shakllantirish aynan boshlang‘ich ta’lim ona tili kursining mazmuni va maqsadi hisoblanadi. Mazkur tezisda boshlang‘ich ta’limda o‘zbek tilining ahamiyati va ona tiliga hurmatni shakllantirish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili, metodika, nutqni o‘stirish, savod chiqarish, grammatika, imlo, o‘qish metodikasi, lug‘at boyligi.

Аннотация. Язык — это средство выражения национальной идентичности, передаваемое из поколения в поколение на протяжении многих лет. Его будущее зависит от молодого поколения. Формирование уважения к языку у ребенка с раннего возраста — именно содержание и цель курса родного языка в начальной школе. В работе рассматривается важность узбекского языка в начальном образовании и формирование уважения к родному языку.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, методика, развитие речи, грамматика, орфография, методика чтения, словарный запас.

Abstract. Language, as a means of reflecting a nation’s essence, has been passed down from generation to generation over the years. Its future destiny now rests with the younger generation. Fostering respect for the language in a child from an early age is the core objective and content of the mother-tongue curriculum in primary education. This thesis explores the significance of the Uzbek language within primary education and discusses the process of cultivating respect for one’s mother tongue.

Keywords: primary education, native language, methodology, language development, literacy, grammar, spelling, reading methodology, vocabulary.

Jadallik bilan jivojlanayotgan zamonamizda ona tiliga hurmatni shakllantirish kunning

dolzarb muammosiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab - quvvatlash va ro‘yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash”[1] kabi yo‘nalishda maqsad va vazifalar belgilandi.

Ona tili millatning ma’naviy qiyofasi, tarixi, o‘zligi, qadriyatlari va milliy ruhini o‘zida mujassam etgan bebaho boylik.[2] Ana shunday boylikka nisbatan hurmatni shakllantirish boshlang‘ich ta’lim ona tilisining asosidir.

Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti – o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish yo‘llari va vositalari, ona tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risidagi ilmdir.[3]

Boshlang‘ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o‘rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo‘lgani uchun til leksikasi misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘qituvchi va o‘quvchilarning bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.[4]

Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining maqsad va vazifalarini belgilash;

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947 son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisida // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plam.—T:2017.—N 6(766), 70-modda.—38-bet.

[2] www.jadid.uz. Tilga e’tibor— elga e’tibor. Abdulla Avloniy so‘zi // Toshkent:Jadid, 2026-yil, 16-oktyabr. N 42(146). – B.2.

[3] K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. // Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nosir, 2009-yil. — B. 3.

[4] cyberleninka.ru/article/ Umarova Sanobar Raxmanovna. Boshlang‘ich sinflarga ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari // —
Buxoro, O‘zbekiston —. B. 43 —44.

b) o‘quvchilarning o‘qish va yozish konikmasiuni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va to‘grilash;

d) ona tilidan berilgan topshiriq va vazifalarni o‘quvchi puxta o‘rganishiga, nutqini rivojlantirishiga yordam beradigan metodlar ishlab chiqish;

e) o‘quvchilarning tilga nisbatan hurmatini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflar ona tili kursi 1 — 4 sinflarda tilning hamma tomonlarining o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so‘z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o‘zaro ta’sir etadigan bir butun hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Tilni o‘rganishga bunday yondashish ta’lim jarayonini o‘quvchilar nutqini o‘stirish vazifasini hal etishga yo‘naltirish imkonini beradi.[5]

Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi yuqori sinf ona tili va adabiyoti fanining poydevori hisoblananib, uning asosi bilish nazariyasidir. Bu fanning asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘zbek lug‘at boyligini o‘zlashtirishiga ko‘maklashishdir.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining quyidagi bo‘limlari mavjud:

Savod o‘rgatish metodikasi: bolalarga savod chiqarish va yozuvni o‘rgatish;

O‘qish metodikasi: bolalarda to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Grammatika, fonetika, so‘z yasalishini o‘rganish metodikasi: o‘quvchilarni orfoepik, orfografik me’yorlarga mos tarzda yozishga o‘rgatish, ularga boshlang‘ich grammatik tushunchalarni yetkazib berish;

Nutq o‘stirish metodikasi: bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o‘quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o‘ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydi. Ular o‘zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham

[5] cyberleninka.ru/article/ Umarova Sanobar Raxmanovna. Boshlang‘ich sinflarga ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari // —
Buxoro, O‘zbekiston —. B. 43 —44.

og‘zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. [6]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947 son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisida //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plam. —T:2017.—N 6(766), 70-modda.—38-bet.

2. www.jadid.uz. Tilga e’tibor— elga e’tibor. Abdulla Avloniy so‘zi // Toshkent:Jadid, 2026-yil, 16-oktyabr.N 42(146). – B.2.

3. K. Qosimova, S. Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. // Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nosir, 2009-yil. — B. 3.

4. cyberleninka.ru/article/ Umarova Sanobar Raxmanovna. Boshlang‘ich sinflarga ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari // — Buxoro, O‘zbekiston —. B. 43 —44.

5. cyberleninka.ru/article/ Umarova Sanobar Raxmanovna. Boshlang‘ich sinflarga ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari // — Buxoro, O‘zbekiston —. B. 43 —44.

6. K. Qosimova, S. Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. // Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nosir, 2009-yil. — B. 5.

[6] K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. // Ona tili o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Nosir, 2009-yil. — B. 5.